



# O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

*VOL. 2 ISS: 6 (2025)*

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TASHKENT STATE  
UNIVERSITY OF ECONOMICS



№	MUNDARIJA	Page
1.	<b>SUG'URTA XIZMATLARIGA BO'LGAN ISTE'MOL TALABINI OSHIRISHNING INNOVATSION YO'LLARI</b> <i>Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich</i>	4
2.	<b>O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORINING IQTISODIY GLOBALLASHUV JARAYONLARIGA RAQAMLASHTIRISHNING TA'SIR YO'NALISHLARI</b> <i>Nomozova Qumri Isoevna</i>	9
3.	<b>QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGINING SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA SUG'URTA XIZMATLARINING ROLI</b> <i>PhD. dosent Kalenov K.T.</i>	14
4.	<b>MARKAZIY OSIYODA TAKAFULNING VAKALAH MODELINI TADBIQ QILSIH IMKONIYATI</b> <i>Fayzullayev Diyorbek Zafar o'g'li</i>	17
5.	<b>INOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA RASSIYA FEDERATSIYASI BANK SUG'URTASINING XOZIRGI XOLATINING TAXLILI</b> <i>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	20
6.	<b>O'ZBEKISTONDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI</b> <i>Baratova Dinora Alisherovna</i>	23
7.	<b>O'ZBEKISTONDA KARBON BOZORI VA KARBON SUG'URTASINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI</b> <i>Erkaboyev Yorbek Boirbekovich</i>	25
8.	<b>УПРАВЛЕНИЕ ДЕНЕЖНЫМИ ПОТОКАМИ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ: СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И ВОЗМОЖНОСТИ ОПТИМИЗАЦИИ</b> <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Роишева Диёра Равшановна</i>	28
9.	<b>ЦИФРОВОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ И ФИНТЕХ КАК ДРАЙВЕРЫ РОСТА ИНВЕСТИЦИОННЫХ СДЕЛОК В РЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ</b> <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Рахимбоева Сугдиёна Рахимбоевна</i>	33
10.	<b>TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI CHAKANA XIZMATLARI VA UNING NAZARIY ASOSLARI</b> <i>Alimov Umid O'ktambayevich</i>	37
11.	<b>TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA ISLOM BANKCHILIGINI JORIY QILISHNING AHAMIYATI</b> <i>Xaitov Shaxzod Sharipboyevich</i>	42
12.	<b>TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI</b> <i>Mamaraimova Rushana Rashidovna</i>	46
13.	<b>O'ZBEKISTONDA BANK SOHASIDAGI ISLOHOTLAR: HOZIRGI MUAMMOLAR VA YUZAGA KELAYOTGAN IMKONIYATLAR</b> <i>dotsent, Sung Tae Kyun</i>	50
14.	<b>TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI</b> <i>Yuldashev Fozil Turapovich</i>	57
15.	<b>DAVLAT IQTISODIY SIYOSATINING INVESTISION MUHITGA TA'SIRI</b> <i>Imomov Xamdilla Xamdamovich</i>	61
16.	<b>O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMIDA BILVOSITA SOLIQQA TORTISH TAHLILI</b> <i>Shirinov Sabir Erkinovich, Mirasimov Ershod Sunatullayevich, Kabirov Abdulla Maxmutovich</i>	63

## “O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash markazi rahbari, dots.).
10. Quldoshov Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU “Marketing” kafedrasida dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).



## DAVLAT IQTISODIY SIYOSATINING INVESTISION MUHITGA TA'SIRI

Imomov Xamdilla Xamdovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Baholash ishi va investitsiyalar"  
kafedrası i.f.n., professori  
e-mail: [himomov1969@gmail.com](mailto:himomov1969@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada davlat iqtisodiy siyosatining investision muhitga ta'siri, investisiya muhiti jozibadorligini ta'minlashda davlat tomonidan muvofiqlashtirishning asoslari, investisiya muhitining o'ziga xos xususiyatlari, investisiya muhiti jozibadorligini tashkil etish va ta'minlash, investisiya muhiti jozibadorligini ta'minlashda davlat oldida turgan maqsad va vazifalar, ularni amalga oshirish siyosatiga oid masalalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Reinvestisiya, investisiya, investisiya muhiti, jozibadorlik, davlat, muvofiqlashtirish, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, jihozlash, modernizatsiya, rekonstruksiya, kredit, davlat krediti, mahalliy investisiya, milliy iqtisodiyot, xorijiy investisiya.

**Abstract:** This article examines the impact of state economic policy on the investment environment, the foundations of state coordination in ensuring the attractiveness of the investment environment, the specific features of the investment environment, the organization and ensuring of the attractiveness of the investment environment, the goals and objectives facing the state in ensuring the attractiveness of the investment environment, and issues related to their implementation policy.

**Keywords:** Reinvestment, investment, investment climate, attractiveness, state, coordination, economic, social, political, legal, equipping, modernization, reconstruction, credit, state credit, local investment, national economy, foreign investment.

**Абстрактный:** В данной статье рассматриваются вопросы влияния государственной экономической политики на инвестиционный климат, основы государственного регулирования в обеспечении привлекательности инвестиционного климата, его специфические особенности, формирование и обеспечение инвестиционной привлекательности, а также цели и задачи, стоящие перед государством в сфере обеспечения инвестиционной привлекательности, и политика их реализации.

**Ключевые слова:** реинвестиции, инвестиции, инвестиционный климат, привлекательность, государство, координация, экономический, социальный, политический, правовой, оснащение, модернизация, реконструкция, кредит, государственный кредит, внутренние инвестиции, национальная экономика, иностранные инвестиции.

### Kirish (введение/Introduction).

Amalda investision muhit milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri bo'lib, mamlakatdagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va huquqiy muhitning yaxlit tizimini ifoda etadi. Davlat iqtisodiy siyosatining investision muhitga ta'siri shu yo'nalishlarda olib boriladigan islohotlarda o'z o'rini bildirishi lozim. Investision muhitning jozibadorligi milliy iqtisodiyotga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish, mavjud kapitalni samarali taqsimlash hamda shu bilan birga ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishda o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, davlat iqtisodiy siyosatining investision muhitga ta'siri investisiya muhitining shaffofligini ta'minlashga qaratilgan bo'lish kerak.

Ma'lumki, davlatning iqtisodiy siyosati investision muhitni shakllantiruvchi asosiy omillardan biri bo'lib, u sarmoya faoliyatining yo'nalishi, hajmi va tarkibiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatimizda investisiya muhitini yanada yaxshilash, xususiylashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik jihatdan qayta jihozlash va rekonstruksiya qilish, respublikaning ishchi kuchi mavjud bo'lgan hududlarida yangi ish joylarini yaratish dasturlarini amalga oshirishga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar keng jalb etilishiga xizmat qiladi.

### Adabiyotlar tahlili (Обзор литературы /Literature review).

Jon Meynard Keynes (1936) o'zining "Employment, Interest and Money" asarida shunday yozadi: "Sarmoya faoliyati faqat foyda olish intilishi bilan emas, balki davlatning iqtisodiy siyosatga bo'lgan kafolati va ishonch muhiti bilan belgilanadi." [1]

M.Porterning (National Competitiveness Model 1990) "Milliy raqobatbardoshlik modeli" da mamlakatning sarmoya uchun jozibadorligi "iqtisodiy siyosat, infratruzilma, ta'lim va innovatsiya tizimi" bilan belgilanadi. [2]

Dj.Douns va G.Elliotning ta'kidlashlaricha "investision muhit investitsiyalar samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, moliyaviy va boshqa sharoitlardir" [3].

P.Yarosh tomonidan bildirilgan fikrlarga ko'ra, mamlakat hududlarining investisiya muhiti turlicha bo'ladi. Buning asosiy sabablaridan biri – ulardagi rivojlanishning bir xilda emasligini hisoblanadi. Shuningdek, investisiya muhiti jozibadorligini ta'minlash rivojlanishi nisbatan sust bo'lgan davlatlar uchun zarur [4].

P.Sijkovich, M.Pekala, P.Pekala, A.Jonsa tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda mahsus iqtisodiy zonalarga berilgan imtiyozlar, qonuniy kafolatlar hududlardagi investisiya muhiti jozibadorligini oshirishda muhim rolni bajaradi. Bunday zonalarning mamlakatning iqtisodiy rivojlanish salohiyati yuqori bo'lgan, ammo investitsiyalash uchun yuqori sezuvchanlikni talab etmaydigan hududlarda tashkil etish lozim deb ta'kidlaydi [5].

A.Vaxabov, Sh.Xajibakiyev, N.Mo'minovlar investisiya muhiti to'g'risida quyidagilarni ta'kidlab o'tadilar: "Investisiya muhiti – bu xorijiy kapital qo'yilmalarining qat'iylik darajasini va ulardan mamlakatda samarali foydalanish imkoniyatlarini oldindan belgilaydigan iqtisodiy, siyosiy, yuridik va ijtimoiy omillar yig'indisidir. Investisiya muhiti kompleks, ko'pqirrali tushuncha bo'lib, milliy qonunchilik, iqtisodiy shart-sharoitlar (inqiroz, o'sish, stagnatsiya), bojxona rejimi, valyuta siyosati, iqtisodiy o'sish sur'atlari, inflyatsiya sur'atlari, valyuta kursining barqarorligi, tashqi qarzdorlik darajasi kabi ko'rsatkichlarga ega" [6].

**Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Методы/Methods).** Tadqiqotni amalga oshirishda qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirishda mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish, iqtisodiy-statistik tahlil, o'zaro va qiyosiy taqqoslash usullaridan samarali foydalanildi.

**Tahlil va natijalar muhokamasi (Анализ /Analysis).**

Bizga ma'lumki, davlatning iqtisodiy siyosati investision muhitni shakllantiruvchi asosiy omillardan biri bo'lib, u sarmoya faoliyatining yo'nalishi, hajmi va tarkibiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Har qaysi investor ma'lum bir mamlakat va uning hududiga investisiya kiritishdan avval o'sha mamlakat va hududning investisiya muhitini baholash, uning jozibadorligini aniqlashga kirishadi. Albatta, bunda eng muhim omillar o'rganiladi, tahlil qilinadi va shu asosda investisiya qarorlari qabul qilinadi. Xorijiy investor uchun yuqorida qayd qilingan barcha omillar muhimdir. [7].

Jahon amaliyotida davlat siyosatining investision muhitga ta'sirini belgilaydigan to'rtta asosiy yo'nalish mavjud:

#### 1. Makroiqtisodiy barqarorlik siyosati

Davlat moliyaviy tizim barqarorligini ta'minlaydi, inflyatsiyani nazorat qiladi, valyuta siyosati orqali sarmoyadorlar uchun xavf darajasini pasaytiradi. Masalan, Janubiy Koreya va Singapurda inflyatsiyaning past darajasi va byudjet intizomi investisiya oqimini 2–3 barobar oshirga erishganligini ko'rishimiz mumkin.

#### 2. Soliq va bojxona siyosati

Sarmoyadorlar uchun imtiyozli soliq stavkalari va import bojlarini qisqartirish orqali davlat biznes muhitini rag'batlantiradi. Shu o'rinda, O'zbekistonda 2022 yildan boshlab faoliyatni yangi boshlagan xorijiy korxonalar uchun 3 yillik soliq ta'tillari joriy etilganligini ham keltirish mumkin.

#### 3. Infratuzilma siyosati

Davlat tomonidan transport, energiya va raqamli infratuzilmaga sarflanadigan investisiyalar xususiy sarmoyadorlar uchun qulay sharoit yaratadi. Masalan, Xitoyda "BIR KAMAR — BIR YO'L" dasturi dorasida davlat infratuzilmasi sarmoyasi umumiy investisiya oqimining 25%ini tashkil etadi.

#### 4. Huquqiy va institusional siyosat

Investisiya qonunchiligining barqarorligi va sud tizimining ishonchligi sarmoyadorlar uchun kafolatdir.

OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development) ma'lumotlariga ko'ra, huquqiy barqarorlik indeksining har bir 0,1 punktga oshishi sarmoya oqimini o'rtacha 3,5% ga ko'paytirgan. Bu Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti bo'lib, demokratiya va bozor iqtisodiyotiga asoslangan davlatlarning iqtisodiy o'sishini, farovonlikni va barqarorlikni oshirish uchun siyosat standartlarini ishlab chiqish va eng yaxshi amaliyotlarni almashish maqsadida hamkorlik qiladi. Bu tashkilot mamlakatlarga iqtisodiy va ijtimoiy muammolarga yechim topishda yordam beradi. [8].

Investision muhit jozibadorligini ta'minlashda davlatning bir qancha muhim vazifalari mavjud bo'lib, ularni samarali yo'lga quyish bilan sarmoyalarni chaqiruvchi jozibador muhitni yaratish mumkin. Islohotlarni amalga oshirish davomiylik davrida davlatning asosiy vazifasi sarmoyadorlar uchun barqaror, shaffof va jozibador muhit yaratish. Buning uchun u quyidagi yo'nalishlarda harakat qilish muhim hisoblanadi:

1. **Normativ-huquqiy muvofiqlashtirish** – investisiya qonunchiligini takomillashtirish, litsenziya va ruxsat jarayonlarini soddalashtirish;
2. **Moliyaviy muvofiqlashtirish** – davlat kafolatlari, soliq imtiyozlari va kredit mexanizmlari orqali sarmoyadorlarni qo'llab-quvvatlash;
3. **Institusional muvofiqlashtirish** – davlat va xususiy sektor o'rtasida samarali aloqalarni ta'minlash;

4. **Axborot va monitoring tizimi** – investisiya jarayonlarini raqamli nazorat qilish va hisobot mexanizmlarini joriy etish.

Bu vazifalar amalga oshirilganda, davlat muvofiqlashtiruvchi sub'yekt sifatida investision muhitdagi barcha ishtirokchilar o'rtasida balansini ta'minlaydi va davlatni investision muhitga ta'sirini oshirishga xizmat qiladi.

Ma'lumki, investisiya faoliyati iqtisodiy o'sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchidir. Shuning uchun davlat fiskal va pul-kredit siyosati orqali investisiya muhitini rag'batlantirishi lozim. Masalan, foiz stavkalarini pasaytirish, soliq imtiyozlari berish, davlat infratuzilma loyihalari orqali xususiy sektor faoliyatini jonlantirish shular jumlasidandir. Shu bilan birga, investision muhitni samarali shakllantirishda institutlarning ya'ni, huquqiy me'yorlar, ijtimoiy kelishuvlar, bozor tamoyillari va davlat siyosatining o'zaro muvofiqligini muhim deb bilamiz. Bu yondashuvga ko'ra, davlat iqtisodiy faoliyat uchun kafolatlangan, shaffof va adolatli muhit yaratishi lozim.

Ma'lumki, investisiya muhitini takomillashtirish mamlakatning strategik iqtisodiy maqsadlariga erishishda asosiy vosita hisoblanadi. Davlat siyosatida bu maqsad quyidagicha ifodalaniishi va amalga oshirilishi zarur:

1. Iqtisodiyotda raqobatbardosh muhitni yaratish;
2. Xususiy sektorning ulushini oshirish;
3. Innovation va yuqori texnologiyali loyihalarni qo'llab-quvvatlash;
4. Infratuzilma sohalariga davlat-xususiy sheriklik asosida sarmoya jalb qilish.

Shu orqali davlat nafaqat investision muhitni boshqaruvchi, balki uning barqarorligini ta'minlovchi asosiy omilga aylanadi. Investision muhitning barqarorligi faqat moliyaviy yoki iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan emas, balki siyosiy va huquqiy barqarorlik bilan ham baholash lozim. Shu nuqtai nazardan davlatning vazifasi investisiya xavfsizligini ta'minlashdir. Bunday yondashuv davlatning iqtisodiy funksiyalarini bozor mexanizmlari bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi va **davlat tomonidan investisiya muhiti jozibadorligini ta'minlashni kafolatlaydi**.

#### Xulosa va takliflar (Conclusions/ Заключение).

Xulosa qilib aytganda, Biron mamlakatning investision muhitini tahlil qilganda, amaldor nuqtai nazari emas, balki o'z mablag'ini daromad keltiruvchi loyihaga joylashtirmoqchi bo'lgan xorijiy investorlarning fikrlari ahamiyatlidir. Ularning fikricha investisiya muhiti bir qator zaruriy omillarga bog'liq bo'lib, ularning mavjudligi investisiya muhitining eng qo'lay bo'lishini ta'minlaydi.

Investor tomonidan ma'lum bir davlatga investisiya qilishning qulay va noqulay tomonlari baholanadi, shu bilan bir qatorda, o'z kapitalini kiritmoqchi bo'lgan mamlakat mafko'rasi, siyosati, iqtisodiyoti va madaniyatiga katta ahamiyat beriladi. Investisiya muhiti har tomonlama chuqur tahlil qilinishi asosida investisiya riski aniqlanadi. Investisiya muhiti va risk darajalari bir-birlariga teskari nisbatdadir. Investisiya muhiti qanchalik qulay bo'lsa, investorning tadbirkorlik riski shunchalik past darajada bo'ladi va bu investorlarning kirib kelishini ko'paytiradi. Aksincha, investisiya muhiti noqulay bo'lsa, risk darajasi yuqori bo'ladi. Bu esa investisiya qabul qiluvchining sarf-xarajatlarining o'sishiga olib keladi. Shunday qilib, investisiya muhitining holati faqat investor uchun emas, balki investisiya qabul qiluvchi uchun ham muhimdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. Jon Meynard Keynes (1936) "Employment, Interest and Money"
2. M.Portnering (1990) "National Competitiveness Model"
3. Доунс Дж., Гулман Дж. Э. Финансово-инвестиционный словарь. 3-е изд. М.: Инфра-М, 2017. – 255с.
4. П.Ярош. Управление развитием территориально-хозяйственных зон в Польше: теория, методология, практика: Монография. – В.: «Полша», 2018. – С. 200
5. Cizkowicz P., Pękala M., Pękala P., Rzońca A. The effects of special economic zones on employment and investment: spatial panel modelling perspective. Economic Institute Warsaw, 2015. Journal of Economic Geography, Volume 17, Issue 3, May 2017. P. 571-605.
6. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Mo'minov N.G. Xorijiy investisiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: «Moliya», 2010. – B. 153.
7. Nomozova Qumri Isoevna. (2025). GLOBALASHUV SHARITIDA IQTISODIY INTEGRATSIYA VA RAQAMLASHTIRISHNING RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI. Insurance Market of Uzbekistan, 2(5), 8–10. [https://doi.org/10.55439/INS/vol2\\_iss5/323](https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss5/323)
8. Xasanov Xayrullo Nasrullayevich. (2025). TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AKSIYADORLIK JAMIYATLARI FAOLIYATINI MOLIALASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI. Insurance Market of Uzbekistan, 2(5), 38–40. [https://doi.org/10.55439/INS/vol2\\_iss5/333](https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss5/333)